

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati
va boshqaruvi akademiyasi**

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026 1 (111)

1997 yildan nashr etiladi

Toshkent – 2026

KORRUPSIYAGA OID JINOYATLARNI ANIQLASH VA ULARNI SODIR ETGAN SHAXSLARNI FOSH ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Qahramon Ergashev,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
magistraturasi Tashkiliy-strategik
yo'nalishi tinglovchisi

Annotatsiya: maqolada korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va ularni sodir etgan shaxslarni fosh etishning milliy me'oriy-huquqiy hujjatlari hamda xalqaro hujjatlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinib, ulardagi bo'shliqlarni bartaraf etish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, me'oriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro hujjatlar, axborot texnologiyalari, tezkor-qidiruv tadbirlari, hamkorlik.

Анализ правовых основ выявления коррупционных преступлений и изобличения лиц, их совершивших

Кахрамон Эргашев,

слушатель магистратуры Академии Министерства
внутренних дел Республики Узбекистан по
организационно-стратегическому направлению

Аннотация: в статье анализируется содержание национальных нормативных правовых актов по выявлению коррупционных преступлений и раскрытию лиц, их совершивших, и международных документов, а также разрабатываются предложения и рекомендации по устранению в них лазеек.

Ключевые слова: коррупция, нормативно-правовые акты, международные документы, информационные технологии, оперативно-розыскная деятельность, сотрудничество.

Analysis of the legal framework for detecting corruption-related crimes and exposing persons who commit them

Kakhramon Ergashev,

Listener of the Master's program Academy of the Ministry
of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
Organizational and Strategic Direction

Abstract. The article analyzes the content of national regulatory legal acts for the identification of corruption crimes and the disclosure of persons who committed them, and international documents, and develops proposals and recommendations on the elimination of loopholes in them.

Keywords: *corruption, regulatory legal acts, international documents, information technology, operational-search activities, cooperation.*

KIRISH

Hozirgi kunda korrupsiyaviy jinoyatlarning salmog'i oshib borayotganligi, ya'ni yangi usullarda jinoyat sodir etilayotgani korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va ularni sodir etgan shaxslarni fosh etishning huquqiy asoslarini tizimli o'rganish va takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi.

Manbalarni o'rganish va ularning tahlili.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va ularni sodir etgan shaxslarni fosh etishning huquqiy asoslarini ikki guruhga bo'lib o'rganish lozim. Bular: milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro hujjatlar. Ushbu huquqiy hujjatlar asosida mazkur jinoyatlarga qarshi kurashishda vakolatli davlat organlarining xizmat faoliyati belgilanadi va amalga oshiriladigan mexanizmlar tartibga solinadi. Bugungi kunda bunday mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, lekin hanuzgacha korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishi davom etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: "jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat huquqi asosida taklif, ariza va shikoyatlari qonunda belgilangan muddatda ko'rib chiqilishi; jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov organlari faoliyat ko'rsatishi, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlariga jamoat tashkilotlari, fuqarolar yordam ko'rsatishi mumkinligi" [1] mazmunidagi qoidalarning belgilanganligi, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid murojaatlari vakolatli davlat organlari tomonidan ko'rib chiqilishini, agarda poraxo'rlik fakti real amalga oshirilayotgan bo'lsa IIO, DXX va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilib, ushbu tezkor bo'linmalarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam berishlarini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksida esa: "Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan o'zganing mulkini oz miqdorda talon-toroj qilish (61-m); nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish(61¹-m); davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish(193¹-m); davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi(193²-m))"[2]mazmunida qoidalarning belgilanganligi, korrupsiyaviy ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan aybdor shaxslar javobgarlikka tortilishini bildiradi. Bunda MJTKning 61-moddasi yuzasidan yetkazilgan mulkiy zarar qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmasligi kerak, agar oshsa korrupsiyaviy jinoyat (JKning 167-moddasi)ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida: "korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar:

tovlamachilik, o'zlashtirish yoki rastrata, firibgarlik; jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish; korrupsiyaviy jinoyatlar: hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, mansab soxtakorligi, pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi"[3] kabi o'ndan ortiq jinoyatlar ikki guruhga ajratilgan bo'lib, mazkur jinoyatlarni aniqlashda IIO lari tezkor bo'linmalari, DDX va Bosh prokuraturaning departamenti xodimlar bilan hamkorlikda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazadilar.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida: "TQTlarining natijalari faqat qonun talablariga muvofiq olingan bo'lsa, dalil sifatida tan olinishi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi oraganning mansabdor shaxsi jinoyat ishini qo'zg'atishdan rad etish haqida qaror qabul qilishi"[4] mazmunidagi protsessual qoidalarning belgilangani, korrupsiyaviy jinoyatlarni aniqlashda IIO tezkor xodimlari JPKga amal qilishi, jismoniy va yuridik shaxsning korrupsiyaga doir murojaatlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv ishini o'tkazishga huquqiy asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida: "Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishi"[5] kabi funksiyalarning belgilanganligi, IIO tezkor bo'linmalari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish DXX va Bosh prokuraturaning departamenti va maxsus vakolatli davlat organi tezkor bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlikda dastlabki (so'rov; ma'lumot to'plash; tezkor kuzatuv va tezkor eksperiment) hamda keyingi (telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish; abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida axborot olish) tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazib, korrupsiya jinoyatlarini aniqlash va fosh etish bilan bevosita shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmonida: "korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash; agentlik o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdor" [6] ligi nazarda tutilganligi, respublikamizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshiruvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganligining huquqiy asosini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son Farmonida: "mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashish,



korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish, korrupsiyaga ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi ekanligi; Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlash uchun barcha kuch, vositalar safarbar etilishi"[7] mazmunidagi o'ta muhim, dolzarb vazifalarning belgilanganligi, IIO lari tezkor bo'linmalarining korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda mas'ul davlat organlari bilan hamkorlikda tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari Prezident Farmoni bilan tartibga solinganini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmonida: "har 3 oyda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat organlari va tashkilotlari kesimida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qilib, jinoyatlar ko'rsatkichi oshgan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar belgilash uchun majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritib borishi; yarim yilda jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon bergan omillarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralarni Milliy kengash yig'ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib borilishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ishlab chiqilganligi" [8] mazkur yo'nalishda tizim asosida mexanizmlar faoliyat ko'rsatayotganini bildiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari eng dolzarb va muhim vazifalaridan bo'ganligi bois, ushbu illatga qarshi kurashishda quyidagi me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarorida: "2021-yil I-sentyabrdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarda ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish, tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini internet tarmog'i orqali real vaqtda kuzatilishi; davlat organlari, tashkilotlarida kadrlar bilan ishlash, xo'jalik ishlari, moliya-iqtisod bo'linmalari va nazorat funksiyasiga ega tuzilmalar rahbarlarini muayyan muddatda rotatsiya qilish; Adliya vazirligi Bosh prokuratura va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi, shu jumladan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan shartnomalarning haqiqiy emas deb topilishi, davlat xizmatchilari tomonidan tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etganligining huquqiy oqibatlarini belgilash"[9] kabilar korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun har bir idoraning ichki tartibda ishlash mexanizmi nazarda tutilib, mansabdor shaxslarning korrupsiyadan tiyilishiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-dekabrdagi PQ-34-son qarorida: "Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlashga oid materiallarni tayyorlash uchun buyurtmalar berish; nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlashga qaratilgan loyihalarini hamda bu borada o'tkaziladigan tadqiqotlarini va ijtimoiy so'rovlarini moliyalashtirish; korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish; agentlikda unga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashuvchi, yuridik shaxs maqomiga

ega bo'lmagan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish"[10] kabi vazifalarning nazarda tutilganligi, korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizmlari ishlab chiqilganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarorida: "korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;
- davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatini ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;
- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim ko'nikmalarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligini yanada oshirish"[11] mazmunida aniq vazifalarning belgilab berilganligi ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda tizimli chora-tadbirlar o'tkazishlarini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarorida: "2022-yil 1-sentabrdan boshlab, "E-Antikorrupsiya" loyihasi to'liq ishga tushirilishi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan' ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalar va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarning faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash; korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari bo'yicha ushbu xavf-xatarlarni bartaraf etish choralarini tizimli ravishda ko'rish maqsadida "Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri"ni shakllantirish va yuritish; korrupsiyaviy xavf-xatarlar qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, inson omilini qisqartirish, tegishli tartib-taomillar va funksiyalarni raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish orqali bartaraf etish" [12] kabi vazifalarning belgilangani, korrupsiyaga qarshi kurashishda har bir davlat tashkilotining korrupsiyaga moyillik darajasini "E-Anticor.uz" elektron platformasi orqali baholab borish tartibi joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son qarorida: "aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, yosh avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirish; korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan davlat xizmati lavozimlaridagi xodimlarning bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda oshirib borish; davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini baholash va sertifikatlash; sertifikat olgan davlat xizmatchilarining reyestrini yuritish; korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy va xorijiy tajriba, ilmiy, uslubiy va amaliy ishlanmalar, erishilgan yutuqlar

bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yuritish; korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yuzasidan ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarini, shu jumladan, milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilgan holda amalga oshirish kabi muhim yo'nalishlar belgilab berilganligi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasining samarali foyiatini ta'minlash uchun 2024- yilga mo'ljallangan Yo'l xatirasi ishlab chiqilganligi"[13] korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat xizmatchisi sifatida ishga qabul qilingan xodimlarni o'qitish va o'rgatish orqali korrupsiyaga samarali qarshi kurashish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda: "korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash, fosh etishga oid tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi davlat organlarini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining tezkor bo'linmalari tashkil etishi; korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklarga O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida (61¹, 193¹, 193²-m) huquqbuzarliklar; korrupsiyaga oid jinoyatlarni esa, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida (167-m. 2-qismi «g» bandi, 168-m. 3-qismi «v» bandi, 192⁹, 192¹⁰, 205, 209 – 214, 243-m.) nazarda tutilgan jinoyatni mansab mavqeyidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar tashkil etishi" [14] mazmunida qoidalarining aniq belgilangani ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari vakolatli subyektlar bilan hamkorlikda korrupsiyaviy huquqbuzarlik va jinoyatlarga qarshi kurashishda huquqiy asos bo'lishi belgilanib, 3 ta ma'muriy huquqbuzarlik va 15 ta jinoyatlar yuzasidan xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish mexanizmi joriy etilganligi mazkur illatiga qarshi murosasiz kurash olib borilishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1999-yild 24-sentyabrdagi "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 19-son qarorida: "pora olish subyekti davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mansabdor shaxsi hisoblanishi; pul, qimmatbaho qog'ozlar, moddiy boyliklar, shuningdek, pora oladiganga qaytarmaslik sharti bilan, lekin mulkiy mohiyatga molik bo'lgan (masalan, ta'mirlash, qurilish, qayta tiklash ishlarini bajarish va boshqalar) xizmatlar pora predmeti bo'lishi" nazarda tutilgan bo'lib, mazkur Plenum qarori mazmunida JKning 210, 211, 212-moddalariga tegishli qoidalar bayon etilgan bo'lib, hozirda korrupsiyaviy jinoyatlarning salmog'i oshib borayotganligi, ya'ni yangi usullarda jinoyat sodir qilayotganligini inobatga olgan holda "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" gi qarorga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, "Korrupsiyaviy jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qaror loyihasini ishlab chiqish, mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilish bilan bog'liq real mummolarni hal etish orqali amaliyot xodimini ish faoliyatini samarali tashkil etish ifodalangan.

Bundan tashqari, IIO tezkor-qidiruv faoliyatiga tegishli bo'lgan Ichki ishlar vazirligining buyruqlari (yo'riqnoma, qo'llanma, nizom va boshq.) mavjud bo'lib, IIV Tezkor-qidiruv departamenti tasarrufidagi bo'linmalarning xizmat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda qabul qilingan. Bularga: tezkor bo'linmalarning xizmat vazifalari haqida; hujjatlarni bilan

ishlash tartibi; maxsus vositalarni qo'llash; "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan vazifalarning ijrosi yuzasidan: qidiruv ishini amalga oshirish; TQFga ko'maklashuvchi shaxslar bilan ishlash; o'zgarlar mulkini talon-toroj qilish va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash; giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglarini noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish kabilar shular jumlasidan. Biroq IIV Tezkor-qidiruv departamentining tarkibida o'ndan ortiq xizmat yo'nalishlari tashkil etilgan bo'lib, aynan IIOlarda korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishni tartibga soluvchi IIVning yo'riqnomasi qabul qilinmaganligi, hozirda bu yo'riqnomani ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etilishiga ehtiyojning mavjudligi, IIVning buyrug'i bilan "Ichki ishlar organlarining korrupsiyaviy jinoyalarga qarshi kurash faoliyatini tartibga soluvchi yo'riqnoma"ning qabul qilinishi mazkur yo'nalishda xizmat qilayotgan xodimlar ish faoliyatini samarali tashkil etishga imkon beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan jami 15 ta me'yoriy-huquqiy hujjat (shundan 1 ta Konstitutsiya, 3 ta kodekslashtirilgan qonunlar, 1 ta joriy Qonun, 3 ta Prezident farmoni, 5 ta Prezident qarori, 1 ta VM qarori, 1ta Oliy sud plenumi qarori)ning mazmun-mohiyati tahlil qilinganida: birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalarida korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda tezkor-qidiruv va tergovga oid ishlar davlat tomonidan vakolatli subyektlar tomonidan amalga oshirilishi; ikkinchidan, MJtK, JK, JPK normalarida korrupsiyaga qarshi kurashishga doir qoidalar (tergovga qadar tekshiruv va tezkor-qidiruv, tergov harakatini o'tkazish va b.)ning aks ettirilganligi; uchinchidan, joriy qonun mazmunida korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy yo'nalishlari o'z ifodasini topgani; to'rtinchidan, Prezident hujjatlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda jamiyatning barcha sohalarini innovatsion g'oyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan choralar va mexanizmlar muayyan davrlarga bo'linib ajratilgani; beshinchidan, Vazirlar Mahkamasining qarorida esa, korrupsiyaga qarshi kurashishda vazifa va funksiyalarni bajarish uchun aniq mexanizmlar nizom bilan tartibga solinganligi; oltinchidan, "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorda faqatgina JKning 210, 211, 212-moddalari yuzasidan umumiy qoidalar belgilanib, hozirda MJtKni 61¹, 193¹, 193²-M; JKning 165, 167, 168, 192⁹, 192¹⁰, 205, 209 – 214, 243, 301-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlar korrupsiya-viy huquqbuzarlik bo'lganligi bois, mazkur Oliy sud plenumini yangi tahrirda "Korrupsiyaviy jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qaror loyahasini qabul qilishga ehtiyoj mavjud; yettinchidan, yigirmadan ortiq IIVning ichki idoraviy me'yoriy-huquqiyhujjatlarining mazmuni o'rganilganda, IIV tizimida tadqiqot mavzusiga oid yo'riqnomaning mavjud emasligi ma'lum bo'ldi.

O'rganilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mohiyatini tahlil qilib, quyidagilar taklif etiladi:

- *birinchidan*, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tezkor-qidiruv, tergov faoliyati davlat organlari tomonidan amalga oshirilishini inobatga olib, bevosita korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashuvchi vakolatli davlat organlari ro'yxatini kengaytirish lozim. Bu orqali latent (yopiq) bo'lib qolayotgan korrupsiyaviy jinoyatlar aniqlanishi va fosh etilishi mumkin;

- *ikkinchidan*, “Tezkor-qidiruv faoliyati to’g’risida”gi O’RQ-344-son Qonunning 14-moddasiga O’zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini TQFni amalga oshiruvchi organ sifatida kiritib, unga huquqiy maqom berish va agentlik tarkibida tezkor bo’linmalarni faoliyat ko’rsatishini ta’minlash. Bu orqali fuqarolik jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini yanada oshirish. Ushbu illat kuchayib borayotgan ekan, unga qarshi kurashuvchi bo’linmalar soni ham ko’p bo’lishi lozim;
- *uchinchidan*, tergovchilar, prokuror, sud’yalarning fikrlarini o’rganib, “Korrupsiyaviy jinoyat ishlari bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida”gi qaror loyihasini ishlab chiqib, uning mazmunida korrupsiyaviy jinoyatlarning faqlari va kvalifikatsiya qilish bilan bog’liq xususiyalarini belgilash;
- *to’rtinchidan*, IIVning “Ichki ishlar organlarining korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini tartibga soluvchi yo’riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyruq loyihasini ishlab chiqish va uning tarkibida: “Umumiy qoidalar”; “Korrup-siyaviy jinoyatlarning oldini olishni tashkil etish tartibi”; “Korrupsiyaviy jinoyatlarni aniqlash, fosh etishni tashkil etish tartibi”; “Korrupsiyaviy jinoyatlarni aniqlash hamda fosh etishda hamkorlik” kabi masalalarni belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Har bir davlatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishida ushbu davlatda xavfsizlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda respublikamiz bilan boshqa davlatlar o’rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasida yuzdan ortiq xalqaro hujjatlar, xalqaro shartnomalar qabul qilinishiga erishilgan bo’lib, mazkur xalqaro hujjatlarning mazmunida korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish masalasi ham kiritilganligi ishtirokchidavlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun poydevor bo’ladi.

Xususan, O’zbekiston Respublikasining Hukumati bilan Ukraina, RF, Gruzuya, Qirg’iziston, Moldova, Latviya Respublikasi Hukumati o’rtasidagi “Jinoyatchilikka qarshi kurash bo’yicha hamkorlik to’g’risida”gi bitimning hamkorlik yo’nalishida uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya qarshi kurashish (2-m)[15–23]kabi vazifalarning belgilanganligi ishtirokchi davlatlarning korrupsiyaga qarshi tadbirlarni hamkorlikda amalga oshirishlarini bildiradi. Biroq, 2002–2018-yillarga qadar O’zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Avstriya, Bolgariya, Vyetnam, Germaniya, Kipr, Janubiy Koreya, Litva, Misr, Ozarbayjon, Pokiston, Polsha, Slovakiya, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, Xitoy, Eron, Quvayt va Hindiston kabi davlatlar Hukumati o’rtasida “Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish” hamda “Jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik” kabi xalqaro bitimlar qabul qilinib, ularning mazmunida hamkorlik yo’nalishlari sifatida “korrupsiyaga qarshi kurashish” masalasi jinoyat sifatida belgilanmaganligi ma’lum bo’ldi.

Bundan tashqari, ushbu xalqaro hujjatlar orasida “Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasi” eng asosiysi hisoblanib, unda: “korrupsiya demokratik institutlar va qadriyatlarga, adolatning qaror topishiga putur yetkazib, jamiyatning barqarorligi va xavfsizligini ta’minlashda real muammo va tahdidlarni vujudga keltirishi, korrupsiyaning shakllari: uyushgan va iqtisodiy jinoyatchilik, noqonuniy pul mablag’larini legallashtirish kabilarga qarshi murosasiz kurash olib borish kerakligi, korrupsiyaning barvaqt oldini olish chorasini sifatida mansabdor shaxslarning Axloq-odob kodeksini ishlab

chiqish zarurligi"[24]ta'kidlanib, mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda, birinchidan, BMTga a'zo davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda maqsadli, manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim. Masalan, davlatlar ijtimoiy va iqtisodiy sohani rivojlantirishga qaratilgan shartnoma va kelishuvlar loyihasida korrupsiyaviy jinoyatlarga yo'l qo'yilmasligi haqida alohida band kiritib, ishtirokchi davlatlar, tashkilotlarning javobgarlik masalasini hal etish; ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash borasida ilg'or tajribaga ega bo'lgan, masalan, Singapur, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlar tajribasini ommalashtirish va boshqa davlatlarda ham keng tatbiq etish; uchinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashishga doir davlat dasturlari va yo'l xaritalarini ikki yilda bir marotaba ishlab chiqish; 2024–2026-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini ishlab chiqishda aholi bilan real ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish, fuqarolar, ayniqsa, ota-onalar kunlik farzandlariga va davlat xizmat ko'rsatish sohasida qonunda belgilanganmagan xarajatlar uchun pul ishlatayotganligi savoliga aniq javoblar olish lozim. Shu asosda buning oldini olish borasida davlat dasturiga zarur choralar belgilanadi; to'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashda boshqa davlatlar bilan xalqaro hamkorlik qilish lozim. Buning uchun, birinchi galda, yuqorida sanab o'tilgan 20 ta davlat bilan korrupsiyaga qarshi kurashish masalasini xalqaro shartnoma, bitimlarda belgilash lozim; beshinchidan, hozirda korrupsiyaviy jinoyatlar axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridan foydalanib, ya'ni pora predmeti elektron shaklda bank plastik kartasiga yuborilishini inobatga olib, "Jinoyatchilikka qarshi kurashda"gi bitimlarning mazmuniga, "korrupsiyaviy jinoyatlarni axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etish" qoidasini kiritish; oltinchidan, korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda har chorakda, olti oyda rivojlanayotgan davlatlar bilan tajriba almashish amaliyotini keng yo'lga qo'yish lozim.

Mazkur takliflarning inobatga olinishi, korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish, aniqlash hamda fosh etishning samaradorligini oshirishga, pirovardida, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Manba va adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Elektron manba: URL: <http://www.lex.uz>. (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 21.11.2025).
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 22.11.2025).
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 23.11.2025).
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 24.11.2025).
5. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni. // Elektron manba: <http://www.lex.uz>. (murojaat vaqti: 25.11.2025).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 06/20/6013/1002-son; Qonunchilik



ma'lumotlari milliy bazasi, 15.06.2022-y., 06/22/154/0524-son; 29.11.2022-y., 06/22/257/1049-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son; 08.11.2023-y., 06/23/188/0835-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Predizidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 06/21/6257/0645-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Predizidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.11.2023-y., 06/23/200/0896-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 07/21/5177/0644-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-dekabrlagi PQ-34-son "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 07/21/34/1140-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2022-y., 07/22/81/0017-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Predizidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 07/22/240/0407-son.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. // (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.06.2024-y., 07/24/228/0437-son).
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/829/1693-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/322/0481-son; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

15. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Ukraina Hukumati o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitim.. 1995-yil 20- iyun, Toshkent (1995-yil 20-iyundan kuchga kirdi) <https://www.lex.uz>. (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 26.11.2025).
16. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik qilish to'g'risida bitim. 1995-yil 27-iyul, Toshkent (1995-yil 27-iyuldan kuchga kirdi) <https://www.lex.uz>. (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 27.11.2025).
17. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Gruzija Respublikasi Hukumati o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik qilish to'g'risida bitim.1995- yil 4-sentyabr, Toshkent(1995-yil 4-sentyabrdan kuchga kirdi) <https://www.lex.uz>. (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 28.11.2025).
18. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg'iziston Respublikasi Hukumati o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to'g'risida bitim. 1999-yil 9-iyul, Toshkent (O'zbekiston Respublikasi uchun 2000-yil 4-dekabrdan kuchga kirgan) <https://www.lex.uz>. (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 29.11.2025)
19. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Moldova Respublikasi Hukumati o1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Elektron manba: URL: [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz). (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 21.11.2025).